

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI**

NAZARMUXAMEDOV DAVRON ABITOVICH

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLARNI TANLASH, TAYYORLASH
VA JOY-JOYIGA QO‘YISHNING TASHKILY-HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Nazarmuxamedov Davron Abitovich

Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga
qo‘yishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish..... 3

Назармухамедов Даврон Абитович

Совершенствование организационно-правовых основ отбора
подготовки и расстановки кадров в органах внутренних дел..... 21

Nazarmukhamedov Davron Abitovich

Improvement of the organizational and legal basis of selection, training
and placement of personnel in internal affairs bodies 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI**

NAZARMUXAMEDOV DAVRON ABITOVICH

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLARNI TANLASH, TAYYORLASH
VA JOY-JOYIGA QO‘YISHNING TASHKILY-HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Yu.1277 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) tayyorlangan va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining veb sahifasida (www.mgju.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumanov Tulkinbay Sattarovich

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Davran Kuvanovich

yuridik fanlar doktori, professor

Yuldasheva Feruza Ulug‘bekovna

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 7-dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent vil., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (+99871) 230-32-50.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3002 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (+99871) 230-32-82; faks: (+99871) 230-32-50.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “23” 11 da tarqatildi.
(2024-yil “23”- 11 dagi 16 - raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

J.D.Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M.B.Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda politsiya xodimlari jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, mazkur davlat organlari uchun tanlangan kadrlar faqat yuridik bilimlarga emas, balki jamiyat bilan muloqot qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur. Bu esa, politsiya xodimlarining professionallik darajasini oshirishga yordam beradi. Fuqarolarning politsiya organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash masalalari davlat idoralarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning o'z vazifalarini qay darajada amalga oshirishiga uzviy bog'liqdir. Jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etish uchun bo'lajak politsiya xodimlarining kasbiy layoqati va qobiliyatlarini inobatga olgan holda, ularning munosib lavozimlarda faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish va bu boradagi uzluksiz ta'lim jarayonini rivojlantirish masalalari hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Jahonda kadrlar siyosatini huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga solish, xususan politsiya tizimlarida kadrlarni sifatli tayyorlash, tanlash va joy-joyiga qo'yish hamda kadrlar barqarorligini ta'minlashni nazarda tutuvchi tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda politsiya idoralari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning yangi va samarador tizimlarini amalga qo'llash, sohada faoliyat yuritish istagida bo'lgan nomzodlarni tanlab olish jarayonida inson omilini kamaytirish, shaffof mexanizmlarni joriy etish, xodimlarning kasbiy layoqati va malaka darajasidan kelib chiqib, ularning xizmat bo'yicha o'sib borishlarini ta'minlash, tizimiga eng so'nggi texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat samaradorligini oshirish, barcha bo'g'indagi xodimlarning vazifa va funksiyalarni aniq belgilab olish va ularni ortiqcha ishlarga jalb etilmasligini ta'minlashda yuzaga kelayotgan tashkiliy va huquqiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ichki ishlar tizimini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat soha rivojini, balki unda kadrlar siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni ham bartaraf etishni nazarda tutmoqda. Biroq, bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimida mavjud bo'sh lavozimlarning (vakansiya) yildan-yilga ko'payib borayotganligi, ichki ishlar organlaridan shaxsiy iltimosiga ko'ra bo'shatilgan safdor, serjant va ofitserlarning ulushi yildan yilga ortib borayotganligi, joylarda ish vaqtiga rioya etilmayotganligi, mavjud lavozim shtatlarining amaldagi ish yuklamalarga nomuvofiqligi tufayli me'yoridan ortiq ish yuklamalarning yuzaga kelayotganligi, xodimlarni xizmat vazifalariga kirmaydigan ishlarga jalb etilayotganligi, xodimlarning xizmat faoliyatiga qarab, ularni rag'batlantirish yoki jazolashning aniq mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi tizimda kadrlar siyosati bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjudligini va ushbu mavzuning qay darajada dolzarb ekanligini ko'rsatadi. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga

aylantirish bo'yicha vazifalarning belgilanganligi tizimda kadrlar siyosati bilan bog'liq masalalarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016), "Ta'lim to'g'risida"gi (2017) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2019), "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) Farmonlari, "Ichki ishlar organlari kadrlar bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017), "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017), "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2021), "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2023) Qarorlari hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusining umumiy jihatlari hamda kadrlarni tanlash, ularni tayyorlash hamda rahbar kadrlarga qo'yiladigan talablarga doir ayrim masalalar respublikamiz yetakchi olimlari M.U.Atamuratov, X.A.Axmedov, S.T.Axmedova, Q.Abdurahmonov, S.V.Asyamov, M.Boydadayev, R.Z.Jumayev, M.Z.Ziyodullayev, T.S.Jumanov, O.U.Ibrohimov, I.Ismailov, Q.Q.Qurbonov, Q.Q.Quranboyev, O'.X.Muxamedov, F.Ravshanov, R.Ro'zmatov, S.M.Selimanova, A.S.Tursunov, I.T.Tulteyev, Sh.B.Shaydullayev, J.Q.Yusubovlar tomonidan ilmiy izlanishlari doirasida o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan Y.L.Vanyushin, V.R.Vesnin, S.O.Gonyuxov, V.I.Gorobsov, M.Dosimbek, A.Yepifanov, S.Zayseva, Y.Kibanov, M.G.Kirjimanov, A.A.Kobozev, I.V.Kuznesova, V.A.Nefedov, D.A.Petrenko, K.Y.Poldnev, A.A.Proshin, A.A.Reznikov, A.N.Savluk, A.Spipina, V.A.Fursov, V.M.Chuprov, V.M.Shamarov, I.A.Shentyabina kabilar tomonidan politsiya idoralarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yish masalalari tadqiq etilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yish bilan bog'liq tashkiliy va huquqiy masalalar, bu boradagi amaliy muammolar maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki

ishlar vazirligi Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va “Davlat hokimiyatini demokratlashtirish va huquqni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish” ilmiy tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar organlari tizimida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yishning tashkiliy va huquqiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

ichki ishlar organlari tarkibiy tuzilmalari uchun kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yish faoliyatini tahlil qilish;

ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yishning nazariy-huquqiy va tarixiy asoslarini tadqiq etish;

Ichki ishlar vazirligining oliy ta’lim muassasalariga kadrlarni tanlash va tayyorlash bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy muammolarni o‘rganish;

ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish hamda kadrlar barqarorligini ta’minlash masalalarini tadqiq etish;

ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarning politsiya organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yish bilan bog‘liq qonunchilik tajribasini o‘rganish, ijobiy jihatlarini milliy tizimga joriy qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlari uchun kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo‘yish, ta’lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarning tartibi va asoslarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlarida kadrlar siyosati bilan bog‘liq faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning obyektni ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar hamda statistik ma’lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy va statistik tahlil, sotsiologik so‘rov, tizimli yondashuv, mantiqiylik, kuzatish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ichki ishlar organlariga xizmatga yoki o‘quv muassasalariga kirish istagida bo‘lgan nomzodlarga qulayliklar yaratish va faoliyat ochiqqligini ta’minlash maqsadida nomzodlar doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joyidagi ichki ishlar organining rasmiy veb-sayti orqali ro‘yxatdan o‘tishi lozimligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlariga xizmatga kirish istagida bo‘lgan nomzodlar bilan tanlov tadbirlarini o‘tkazish jarayonida inson omilini kamaytirish va xolislikni ta’minlash maqsadida test sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkazilishi lozimligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlarida xizmat qilish istagidagi nomzodlarni tanlashning adolatli va shaffof tizimini yaratish, mavjud tartiblarni tubdan soddalashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida "E-nomzod" yopiq axborot tizimini joriy etish hamda xizmatga qabul qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish lozimligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini yuritayotgan eng yaxshi xodimlarni aniqlash va ularni saralab olish bo'yicha respublika tanlovini tashkil etish lozimligi ilmiy asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"nomzodlarni tanlash", "kadrlarni tanlash", "kadrlarni tayyorlash", "kadrlarni joy-joyiga qo'yish", "ichki ishlar organlariga nomzodlarni tanlash", "ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash", "ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash", "ichki ishlar organlarida kadrlarni joy-joyiga qo'yish" tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining kunduzgi ta'lim shakliga nomzodlarni o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha kirish imtihonlarini topshirish qoidasini bekor qilish va umumiy tarzda tanlovda ishtirok etish tartibini joriy etish lozimligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlarini o'tkazishda dastlab nomzodlar o'rganilishi, keyin tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'lom yoki nosog'lom ekanligi aniqlashtirilishi, so'ng nomzodlarning bilimi va jismoniy tayyorgarlik darajasi tekshirilishi lozimligi asoslantirilgan;

O'zbekistonda erkaklarning o'rtacha bo'y balandligini va bo'yning ko'rkamroq ko'rinishini hisobga olib, ichki ishlar organlariga ham xizmatga qabul qilinayotgan erkak jinsidagi nomzodning minimal bo'y balandligi 170 santimetrdan past bo'lmasligi kerakligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilinayotgan nomzodlar bilan o'tkaziladigan test sinovlari faqatgina guruh tarkibida amalga oshirilishi lozimligi asoslantirilgan;

Ichki ishlar vazirligining idoraviy akademik litseylariga o'quvchilarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik vakillari tanlovlarni real vaqt rejimida (onlayn) kuzatib borishlari uchun tanlov tadbirlari videokuzatuv (onlayn translyatsiya) ostida o'tkazilishi lozimligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlariga xizmatga kiruvchi nomzodlarni avvalo o'rta maktabdan boshlab tanlash va ular bilan tizimli ishlash mexanizmini yo'lga qo'yish kerakligi asoslantirilgan-

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ilg'or xorijiy tajribalar, qonunni qo'llash amaliyoti, rasmiy manbalardan olingan ilmiy-nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar, ichki ishlar organlari mutaxassislari (350 nafar mutaxassis xodimlar), ichki ishlar organlari xizmatiga kiruvchi nomzodlar (150 nafar nomzod) o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov hamda statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari

yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yishda, ushbu yo'nalishda yangi ilmiy-tadqiqotlarni olib borishda hamda bu boradagi qonunchilik amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularning amaliyotga tatbiq etilishi ichki ishlar organlari uchun munosib kadrlarni tanlash, tayyorlash, ularning joy-joyiga qo'yish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yishning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida quyidagicha foydalanilgan:

Ichki ishlar vazirligi markaziy apparati va oliy ta'lim muassasalariga (Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi va Malaka oshirish institutiga), shuningdek Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasiga xizmatga kirish istagi bo'lgan nomzodlar, doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan joyidan qat'iy nazar, tegishliligiga ko'ra, Ichki ishlar vazirligi markaziy apparati, oliy ta'lim muassasalari (Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi va Malaka oshirish instituti) yoki Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining rasmiy veb-saytlari orqali ro'yxatdan o'tishlari mumkinligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 601-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 15-bandi 3-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tashkiliy departament Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2024-yil 15-apreldagi 33/694-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi ichki ishlar organlariga xizmatga yoki o'quv muassasalariga kirish istagida bo'lgan nomzodlarga qulayliklar yaratishga va faoliyat ochiqligini ta'minlashga xizmat qilgan;

ichki ishlar organlariga xizmatga kirish istagida bo'lgan nomzodlar bilan tanlov tadbirlarining test sinovlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkazilishi lozimligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 601-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 43-bandi 1 va 2-xatboshilari ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tashkiliy departament Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2024-yil 15-apreldagi 33/695-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi ichki ishlar organlariga xizmatga kirish istagida bo'lgan nomzodlar bilan tanlov tadbirlarini o'tkazish jarayonida inson omili bilan bog'liq holatlarni kamaytirish va xolislikni ta'minlashga xizmat qilgan;

ichki ishlar organlariga xizmatga kirish istagida bo'lgan nomzodlar bilan tanlov tadbirlarini o'tkazishni "E-nomzod" yopiq axborot tizimini joriy etish orqali

amalga oshirilishini ta'minlash lozimligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida kadrlar salohiyati darajasini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning "yo'l xaritasi" 13-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tashkiliy departament Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2024-yil 14-maydagi 33/900-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi Ichki ishlar organlarida xizmat qilishga nomzodlarni tanlashning adolatli va shaffof tizimini joriy etishga, mavjud tartiblarni tubdan soddalashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qilgan;

ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini yuritayotgan eng yaxshi xodimlarni aniqlash va ularni saralab olish bo'yicha respublika tanlovini tashkil etish takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida eng yaxshi xodimlarni aniqlash bo'yicha respublika tanlovini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 539-son qarorining 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 18-iyuldagi 14-son dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 4 ta, xalqaro jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yishning nazariy-huquqiy asoslari**" deb nomlanadi va ikkita paragrafni o'z ichiga oladi.

Ushbu bobning «*Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash hamda joy-joyiga qo'yishning ahamiyati va tahlili*» deb nomlangan birinchi paragrafida ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yishning ahamiyati va tushunchasi haqida so'z yuritilgan. Kadrlar masalasi har qanday davlat

siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanib, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ushbu kadrlarning malakasiga bogʻliqdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev kadrlar zaxirasi masalasiga alohida urgʻu berar ekan, yangi fikr va gʻoyalarga qodir boʻlgan avlodni tayyorlash zarurligini taʼkidlaydi.

Mamlakatda kadrlar tayyorlashni yaxshilash maqsadida 1997-yilda “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” qabul qilingan, bu dastur taʼlim tizimini isloh qilish va malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qildi. 2021-yilda “Taʼlim toʻgʻrisida” yangi qonun qabul qilinib, kadrlar tayyorlash va ularning huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi. Dissertant mamlakatning rivojlanishi va islohotlarni amalga oshirish birinchi navbatda kadrlarning malakasi va ularning fidoyiligiga bogʻliq boʻliqligini qayd qilib, rahbarlik vazifalariga yosh va yangi texnologiyalardan foydalana oladigan kadrlarni jalb qilish muhimligini asoslab bergan.

Birinchi bobning *“Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash hamda joy-joyiga qoʻyishning tarixiy-huquqiy jihatlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida retrospektiv tahlil oʻtkazilgan. Bu jarayonning shakllanishi uzoq davrlarga borib taqaladi va u jamiyatning ijtimoiy tartibiga qarab rivojlangan. Ilk jamoalarda osoyishtalikni saqlash uchun maxsus organlar mavjud boʻlmagan, balki jamiyatning obroʻli kishilari yoki harbiylar bu vazifani bajargan. Davlat shakllanishi bilan tinchlik va tartibni taʼminlovchi maxsus tuzilmalar, jumladan, harbiy-maʼmuriy xizmatlar paydo boʻldi.

Oʻrta Osiyo davlatlarida harbiylar va maxsus xizmatlar osoyishtalikni taʼminlashda alohida rol oʻynagan. Mirshablar kabi shaxslar jamoat tartibini saqlashga masʼul boʻlgan. Davlat boshqaruvi tizimi rivojlanishi bilan harbiy-huquqiy nazorat kuchaydi va tinchlikni taʼminlashda maxsus xizmatchilarning roli ortib bordi.

Sovet hukumati davrida ichki ishlar organlarining shakllanishi va rivojlanishi huquqiy asoslar bilan tartibga solindi. 1917-yildagi Oktabr inqilobidan soʻng militsiya tashkil etildi, uning vazifalari va kadrlar siyosati qonuniy asosda yoʻlga qoʻyildi. Militsiyaning vazifalari jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni taʼminlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat boʻlgan. Sovet davrida kadrlar tayyorlash va joy-joyiga qoʻyish maxsus qonunlar asosida tartibga solingan.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan soʻng, ichki ishlar organlari hamda kadrlar siyosatini takomillashtirish uchun bir qator huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari uchun malakali kadrlar tayyorlash, ularni tanlash va joy-joyiga qoʻyish tizimli tarzda rivojlantirildi. 2017-yildan boshlab kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish boʻyicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

Muallifning fikriga koʻra shu tariqa, ichki ishlar organlarida kadrlar siyosati Oʻzbekistonning tarixiy va huquqiy jarayonlari davomida shakllangan va hozirgi kunda kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qoʻyish zamonaviy talablarga mos ravishda yoʻlga qoʻyilgan.

Ikkinchi bob **“Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qoʻyish amaliyoti”** deb nomlanib, ikkita paragrafdan iborat.

Ushbu bobning *“Ichki ishlar vazirligining oliy ta’lim muassasalarida kadrlarni tanlash va tayyorlash bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy masalalar”* deb nomlangan birinchi paragrafida mavzuga oid dolzarb masalalar muhokama etiladi. Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun ularning kelajagini belgilab beradigan malakali kadrlarni tanlash va tayyorlashga alohida e’tibor qaratilishi kerakligi ta’kidlanadi. Bu borada kadrlarni saralash va o‘qitish tizimi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida yanada takomillashtirilgan.

Kadrlarni tanlash jarayoni ochiqlik va shaffoflik asosida amalga oshirilishi lozim, buning uchun nomzodlarning bilim, jismoniy tayyorgarlik va psixofiziologik jihatlari hisobga olinishi zarur. Bu jarayonda ta’lim muassasalariga munosib nomzodlarni topish va ularni tegishli mezonlar asosida tanlash dolzarb masalalardan biridir. Tanlovning shaffof va adolatli bo‘lishini ta’minlash uchun mansabdor shaxslarning mas’uliyati oshirilishi, ular tomonidan adolatli qarorlar qabul qilinishi muhimdir.

Muallifning fikricha, 2014-yilda qabul qilingan *“Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”*gi qonun nomzodlarni tanlash jarayonida ochiqlikni ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari jamoatchilik bilan doimiy aloqada bo‘lgani uchun ularning faoliyatiga nisbatan aholining fikrlari doimo kuzatiladi va baholanadi. Ammo, fuqarolar tomonidan bildirilgan e’tirozlar hamma vaqt asosli bo‘lmasligi mumkin, chunki qonun doirasida qabul qilingan qarorlar ba’zida shaxsning manfaatlariga har doim ham mos kelmaydi.

Muallif paragrafda ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolar bilan muloqot jarayonida yuzaga keladigan holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarurligi ta’kidlaydi. Xodimlarni tayyorlash bosqichida bu kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Tanlov jarayonida nafaqat nomzodlarning bilimlari, balki ularning dunyoqarashi va mustaqil fikrlay olishi ham hisobga olinishi lozim. Paragrafda shuningdek, muallif kadrlarni tanlash, tayyorlash va ishga joylashtirishda zamonaviy talablarga mos ravishda huquqiy va tashkiliy jihatlarni takomillashtirish zarurligi haqida fikr yuritadi.

Ushbu bobning *“Ichki ishlar organlaridagi xizmatga nomzodlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish hamda kadrlar barqarorligini ta’minlash masalalari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida ushbu mavzu doirasidagi muammolar tahlil qilinadi. Salohiyatli kadrlar ishlab chiqarishda o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi, ular yillar davomida nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va tajriba orqali rivojlantiriladi. Shu bois, ichki ishlar organlari uchun kadrlarni saralash, tayyorlash va ularning barqarorligini ta’minlash masalalari dolzarb ahamiyatga ega.

Paragrafda muallif nomzodlarning ichki ishlar organlariga ishga kirish motivlarini muhokama qiladi. Ko‘pchilik nomzodlar ichki ishlar organlariga moddiy barqarorlik, ijtimoiy kafolatlar va nafaqa uchun xizmatga kirishga qiziqishadi. Lekin, vatanparvarlik va xalqqa xizmat qilish istagi asosiy motiv bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Nomzodlarni tanlab olishda ularning maqsad va intilishlari ahamiyatli

bo'lib, faqat moddiy manfaatni ko'zlagan nomzodlar bilan tizimdagi barqarorlikni ta'minlash qiyin bo'lishi mumkin.

Muallifning ta'kidlashicha muammolarning biri – ishga qabul qilingan kadrlarni joy-joyiga qo'yish jarayonidagi kamchiliklardir. Har qanday sohada kadrlarni to'g'ri joylashtirish, kadrlarning xizmat davomiyligini ta'minlash va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash ish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Paragrafda keltirilishicha, ichki ishlar organlarida ba'zan xodimlarning joy-joyiga qo'yilishida adolatsizliklar va mas'uliyatsizliklar kuzatilgan.

Shuningdek, muallif ichki ishlar organlaridagi kadrlar zaxirasini shaffoflik bilan shakllantirish, amaldagi rahbarlarning rotatsiyasi va yangi kadrlarning tanlanishi ham muammoli masalalar sifatida muhokama etadi. Xodimlarning lavozim pog'onalari bo'yicha rivojlanishini ta'minlash uchun tizimli ishlarning amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanadi.

Uchinchi bob **“Ichki ishlar organlarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish”** deb nomlanib, beshta paragrafdan iborat.

Ushbu bobning *“Politsiya organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yishga oid ayrim rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi”* deb nomlangan birinchi paragrafida mavzuga oid masalalar tahlil qilingan. Muallif ta'kidlashicha, xorijiy davlatlardagi ijobiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy qonunchilikka moslashtirish muhimdir, chunki bu amaliyot politsiya tizimini samaraliroq qilish imkonini beradi.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) tajribasiga ko'ra, politsiya xizmatchilari o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lishi talab qilinadi. Ular politsiya maktablarida maxsus o'quv kurslaridan o'tishadi. Tanlov jarayonida nomzodlar yozma testlar, jismoniy tayyorgarlik, shaxsiy tekshiruvlar va giyohvand moddalar iste'moliga oid testlardan o'tishlari shart. Muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar politsiya akademiyasida dastlabki kasbiy tayyorgarlikdan o'tishadi, bu davrda huquq, jamoat xavfsizligi va amaliy patrul xizmati kabi ko'nikmalarni olishadi.

Xitoy Xalq Respublikasi tajribasida Xitoy xalq politsiya universiteti nomzodlarni ikki asosiy yo'nalishda – jamoat xavfsizligi va jamoat xavfsizligi bilan bog'liq bo'lmagan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlaydi. Xitoyda jamoat xavfsizligi mutaxassisligiga kirishda siyosiy bilimlar, jismoniy tayyorgarlik va tibbiy ko'rik talab qilinadi.

Yaponiya politsiyasida esa, nomzodlar milliy yoki mahalliy imtihonlar orqali tanlanadi. Yaponiyada nomzodlarning mutaxassisliklari va insoniylik xislatlariga katta e'tibor qaratiladi. Yaponiyada kadrlar zaxirasi hatto maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari orasidan ham shakllantiriladi.

Buyuk Britaniya politsiyasida nomzodlar uchun jismoniy va ruhiy tayyorgarlik talab qilinadi. Tanlov jarayoni muvaffaqiyatli o'tganlar konstabel sifatida ikki yillik sinov muddati bilan qabul qilinadi. Ular maxsus tayyorgarlik dasturlari asosida o'qitiladi va murabbiy ko'magida amaliyot o'taydi.

Muallif paragrafda keltirilgan rivojlangan davlatlarning tajribalari O‘zbekistonning ichki ishlar organlaridagi kadrlarni tanlash, tayyorlash va joylashtirish jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi degan xulosaga keladi.

“Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yishning tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish istiqbollari” deb nomlangan uchinchi bobning ikkinchi paragrafida ushbu mavzuga oid masalalar tadqiq etilgan. Muallif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvarda “Ichki ishlar organlarining xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-sonli Qaroriga, ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi” va “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamenti to‘g‘risida”gi Nizom qoidalarini amalga oshirish masalalariga e‘tibor qaratgan.

Muallif bir qator raqamlashtirish jarayonlari haqida ma‘lumot beradi. Jumladan, “E-Ijtimoiy himoya”, “E-Guvohnoma”, “E-Kadr” kabi tizimlar yaratilgani aytiladi. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan munosabatlaridagi ayrim muammolar, xususan, ba‘zi xodimlarning muomala madaniyati yetarli yemasligi, vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olmasligi kabi holatlar uchray turishi qayd etiladi.

IIV Akademiyasiga qabul qilish tartibini takomillashtirish bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, o‘rta va o‘rta maxsus ma‘lumotli fuqarolarga ham to‘liq imkoniyat berish, idoraviy akademik litseylar sonini kamaytirish kabi takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, kadrlarni tayyorlash jarayonini yaxshilash bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning ish yuklamasini optimallashtirish, o‘quv-moddiy bazani mustahkamlash, kursantlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar taklif etiladi.

Kadrlarni joy-joyiga qo‘yish va ularning barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha asoslangan fikrlar ilgari surilgan. Xususan, muallif xodimlarni mutaxassisligiga qarab tayinlash, ish vaqtiga rioya qilish, rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish kabi tavsiyalarni beradi. Umuman, u ichki ishlar organlari kadrlar siyosatini kompleks ravishda takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli takliflar kiritadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarga ajratilgan holda bayon etildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Quyidagi tushunchalarga mualliflik ta‘riflari ishlab chiqildi:

Nomzodlarni tanlash – kerakli nomzodlarni kelgusida ishlab chiqarishda faoliyat yuritishi uchun kirmoqchi bo‘lgan ko‘plab nomzodlar orasidan tegishli talab va shartlar asosida saralash yoki ta‘lim muassasalariga o‘qish uchun ko‘plab nomzodlar orasidan eng bilimlilarni saralab olish jarayoni tushuniladi.

Kadrlarni tanlash – ishlab chiqarishning o‘zida faoliyat yuritib kelayotgan va tegishli malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar orasidan muayyan lavozimga (boshqa

teng yoki yuqori) ma'lum bir talab hamda shartlar asosida (konkurs) tanlash va lavozimga tayinlash jarayoni.

Kadrlarni tayyorlash – ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarni tegishli mutaxassislik yo'nalishida davlat talablari, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi va fan dasturlariga muvofiq kelgusi ish faoliyati uchun tayyorlash jarayoni.

Kadrlarni joy-joyiga qo'yish – xodimlarni (kadrlarni) tegishli mutaxassisligiga, ish faoliyati natijalariga, malakasiga qarab, unga mos va munosib bo'lgan lavozimga qo'yish (tayinlash).

2. Nomzodlarni tanlash, kadrlarni tanlash, ularni tayyorlashga doir berilgan umumiy ta'riflarni inobatga olgan holda, ichki ishlar organlari faoliyatining xususiyatidan kelib chiqib, quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi:

Ichki ishlar organlariga nomzodlarni tanlash – kelgusida ichki ishlar organlarida xizmat qilish yoki ta'lim muassasalarida o'qish istagini bildirgan ko'plab nomzodlar orasidan tegishli talab va shartlar asosida ularni saralab olish (tanlash) jarayoni.

Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash – Ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotgan tegishli mutaxassislik bo'yicha malakaga ega bo'lgan nomzodlarni muayyan lavozimga (boshqa teng yoki yuqori) tegishli talab va shartlar asosida (konkurs) saralab olish (tanlash) jarayoni.

Ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash – ichki ishlar organlarining ta'lim muassasalarida kursant va tinglovchilarni tegishli mutaxassislik yo'nalishida davlat talablari, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi va fan dasturlariga muvofiq tayyorlash jarayoni.

Ichki ishlar organlarida kadrlarni joy-joyiga qo'yish – ichki ishlar organlari xodimlarini (kadrlarni) tegishli mezonlar asosida, yo'nalishiga, mutaxassisligiga, ish faoliyati natijalariga, malakasiga qarab, unga mos va munosib bo'lgan lavozimga qo'yish (tayinlash).

3. Ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yishning tarixiy-huquqiy jihatlari o'rganildi va quyidagi xulosaga kelindi:

- insonlar jamoa bo'lib yashagandan buyon, ular orasida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash masalasi dolzarb hisoblangan. O'sha vaqtlarda jamoada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlovchi aynan ichki ishlar organlari nomli xizmat bo'lmagan, balki ushbu vazifalar alohida toifadagi saralangan kishilar (hurmatga sazovor bo'lganlar, yetakchilar va oqsoqollar), davlat paydo bo'lgandan keyin yesa davlat xizmatchilari yoki harbiy bo'lgan soqchilar, posbonlar ("soqchi", "qorovul", "chokar", "shixna", "yasovul", "ko'kaldosh", "muhtasib", "posbonboshi", "sarboz", "mirshabboshi" va "mirshab" deb ham nomlangan) tomonidan amalga oshirilgan;

- O'zbekiston mustaqillikka erishishidan oldingi davrda ushbu sohada ma'muriy islohotlar boshlanib, kadrlar bilan ishlashning dastlabki huquqiy asoslari yaratilgan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bilan bog'liq bir qator tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

- mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach barcha sohalar qatori ichki ishlar organlarida ham tizimli islohotlar amalga oshirildi, natijada milliy kadrlarni

tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yish bilan bog'liq tegishli bir qator normativ-huquqiy hujjatlar tubdan yanada zamonaviy tarzda takomillashtirildi.

